



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-62-115-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i hamda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining hisobotlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, Mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i hamda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining hisobotlari xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalar yig‘ilishida eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, Mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i hamda tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining hisobotlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov) hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (U.Qosimov)ga:

- tumanda O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan huquq va erkinliklar, shuningdek burch va majburiyatlari to‘g‘risida keng aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini doimiy

ravishda hamkorlikda olib borish;

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga qonuniy tartibda, belgilangan vakolatlari doirasida ijtimoiy, moddiy, psixologik, ma’naviy ko‘mak berib borish vazifalari yuklansin.

3. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (U.Qosimov)ga:

- faoliyat ko‘rsatmayotgan, samarasiz foydalanilayotgan binolar va qurilishi tugallanmagan obyektlar negizida yangi ish o‘rinlarini yaratishda ishtirok etish;

- davlat xususiy sherikchilik asosida ishga tushadigan ijtimoiy obyektlar hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish;

- masofaviy ta’lim berish orqali hamda maishiy, savdo, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishda servis xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish;

- sektorlar kesimida, korxona va idoralarning mutasaddi rahbarlari bilan hamkorlikda tuman aholisining, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar, ayniqsa xotin-qizlar, yoshlarning ishsiz qatlamini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, tadbirkorlikka yo‘naltirish bo‘yicha ishlarini tashkil qilish;

- aholi o‘rtasida o‘zini o‘zi ish bilan band qilish yo‘nalishida mahalla telegram kanallari orqali bandlikka doir ma’lumotlarni doimiy berib borish, tushuntirish ishlarini tashkil etish;

- tuman veb-sahifasida mavjud bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni doimiy to‘ldirib, yangilab borish;

- mehnat bozorida paydo bo‘lgan, ayni vaqtda rivojlanib va ommaviylashib borayotgan, masofadan turib xizmatlar ko‘rsatish turlari bo‘yicha vakant ish o‘rinlari bilan to‘ldirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Sektor rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov), tuman hokimining tegishli o‘ribbosarlari va tumandagi barcha tijorat banklari, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (N.Sharipov) bilan hamkorlikda:

- xususiy sektorda ro‘yxatdan o‘tmasdan ish yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlash va ularning faoliyatini qonuniylashtirish chora-tadbirlarini olib borish;

- tijorat banklari va maxsus jamg‘armalar hisobidan beriladigan kreditlar hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va

ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oy yakuni bilan tegishli mansabdar shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov